



OILADA FARZAND TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ MUTAFFAKIRLARINING QARASHLARI.

Cho'ponova Quvonch Otanazarovna

Urganch davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada oilaviy hayotda farzand tarbiyasini shakllantirishda sharq mutafakkirlarining o'ziga xos bo'lgan qarashlarini o'rganish. Oilada tarbiyalanilgan farzandlar tarbiyasi ularni xulq- atvori xususiyatlari shakllanishida buyuk ajdodlarimizning falsafiy qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqolada oilaning muqaddas ekanligi va yigitlar va qizlar qachon turmush qurushi ma'qulligi haqida to'la ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Oila, nikoh, farzand, tarbiya, tinchlik-osoyishtalik, e'zozlash, oilaviy qadriyatlar, shaxsiy shakllanish, oilaviy hayot, ijtimoiy maqom, yaxshi xulq, yamon xulq.*

Аннотация: *В статье рассматриваются уникальные взгляды восточных мыслителей на формирование воспитания ребенка в семейной жизни. Приводятся сведения о философских взглядах наших великих предков на воспитание детей, воспитывающихся в семье, и формирование их поведенческих особенностей. Эта статья полна информации о святости семьи и о том, когда юношам и девушкам уместно вступить в брак.*

Ключевые слова: *Семья, брак, ребенок, образование, мир и спокойствие, уважение, семейные ценности, формирование личности, семейная жизнь, социальный статус, хорошее поведение, плохое поведение.*

Annotation: *The article examines the unique views of Eastern thinkers on the formation of child upbringing in family life. Information is provided about the philosophical views of our great ancestors on the upbringing of children raised in families and the formation of their behavioral characteristics. This article is full of information about the sanctity of the family and when it is appropriate for boys and girls to get married.*

Key words: *Family, marriage, child, education, peace and tranquility, respect, family values, personality formation, family life, social status, good behavior, bad behavior.*

Kirish. Oilani muqaddas maskan sifatida e'zozlash, oilada tinchlik-osoyishtalik, farovonlik muhitini qaror toptirish xalqimizga azaldan xos bo'lgan fazilatdir. Oila va oilaviy qadriyatlar har qanday inson hayotida quriladigan eng muhim poydevor hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi oilada boshlanadi. Qonunchiligimizga nazar solar ekanmiz oilaga katta e'tibor qaratilganligini, jumladan, uni qanday tashkil qilish, oila a'zolarining huquqlari va burchlari, umuman oilaviy hayotning barcha masalalariga urg'u berib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 1998-yil "Oila" yili deb bejizga



aytilmagan.[2] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlanib, oilaning ijtimoiy maqomi aniq va ravshan belgilab qo'yilgani dunyo davlatlarining bosh qonunlarida uchraydigan kamyob voqelikdir. Xususan, Bosh Qomusimizning 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Shuningdek, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanligi, farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan. Qolaversa, asosiy qonunimizning 66-moddasida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburligi belgilangan. Shu bilan birga, oilaning davlat tomonidan himoya qilinishi O'zbekiston Respublikasining Oila, Fuqarolik, Uy-joy, Mehnat Kodekslarida hamda qator qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. [1]

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda ham oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan. Shu bois ota-bobolarimiz oilaga juda katta e'tibor bilan qarashgan.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani yuqoridagi an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan milliy hamda ma'naviy qadriyatlarimiz asosida ushbu sohada yillar davomida to'planib qolgan, e'tibordan chetda qolib kelgan muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari oldiga eng muhim va dolzarb vazifalar qo'yildi. Mazkur Farmonga binoan, Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi oila instituti sohasida yagona davlat siyosatini yurituvchi tizim sifatida tashkil etildi. Markazning asosiy vazifasi davlat va jamoat tashkilotlari, parlament, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini O'zbekiston oilalarini mustahkamlash g'oyasi atrofida birlashtirish, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirib borish, mamlakatda faqat sog'lom oila — sog'lom jamiyat ustuni bo'la olishini aholi ongiga singdirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish orqali oila institutini mustahkamlash etib belgilangani mamlakatimizda bu borada mutlaqo yangi bosqichdagi sa'y-harakatlar boshlanganidan dalolat beradi. O'z navbatida, umuminsoniy va milliy oilaviy qadriyatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy, namunali



oila mezonlarini belgilash hamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy prinsipini keng targ'ib etish va jamiyatga singdirish masalalariga kompleks yondashish faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalargacha o'z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o'rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so'zlar, she'riy satrlar orqali pand-nasihatlarni, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go'zal, jismonan va ma'nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo'li — barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmasligini ta'kidlashgan[3].

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Xotam ibn Toy, Zahridin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Uvaysiy, Nodira, Abduruf Fitrad, Abdullo Avloniy kabi sharq mutafakirlarning oila xususidagi dono fikrlarining bayoni beriladi[8].

Alisher Navoiy (1441-1501) "Mahbub ul qulub", ya'ni "qalblar sevgilisi" va "Vaqfiya" asarlarida oilaviy turmushi bilan bog'liq er va xotinning vazifalari, burchlari, o'zaro munosabat-muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlari haqida qimmatli nasihat va ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub" asarining 37 fasl "uylanganlik va xotinlar to'g'risida" ayolning fazilatlari va uning oiladagi o'rni haqida quyidagilarni yozadi; "er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boyluk va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganning (erning) tinchligi undan degan fikrlarni bayon qiladi[7].

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtai nazarini ko'pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchramiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir". "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi". "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi, oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy o'rta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va



milliy madaniyatlarining o'ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-nikoh, oiladagi o'zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning "poligamiya" (erkak yoki ayol bir paytning o'zida bittadan ortik er yoki xotinga ega bo'lishiga yo'l qo'yiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni keltiradi[6].

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning g'oyalarida oilaning to'liqligi, unda qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir"[4].

Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risoi ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritir ekan, avvalo oila boshlig'i erning oldidagi mas'uliyatli vazifalarga e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig'i bo'la oladi. Er-xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o'zaro hurmat asosida qurilishi haqida to'xtalib, "Erkak kishi oila boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, 31 munosib yo'ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino.

Kaykovus qalamiga mansub Qobusnoma asari (1082-1083 yillarda yozilgan) Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Qobusnomada qator ibratli va hayotiy pand nasihatlar bilan birgalikda "ishq va uning odatlari zikrida", "xotin olmoq zikrida" ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. "Ey farzand, to kishining ta'bi latif bo'lmaguncha oshiq bo'lmag'usidir, nedinkim ishq byoshak ta'bi latiflikdan paydo bo'lur. Har narsaki ta'bi latiflikdan paydo bo'lsa, ul byoshak latif bo'lur". Bu erda insonning qalbi toza, pok va axloqan yuksak bo'lsa, uning ko'ngli, sifat va fazilatlar ham, hissiy kechinmalari ham sof va chiroyli bo'lishiga ishora qilingan. "Bas, agar oshiq bo'lsang shundoq



kishiga bo'lgilki, ul ma'shuqalikka loyiq bo'lsin". Bunda bo'lg'usi er-xotinning nikohigacha davrda bir-birini ko'rib-bilib, sinab ma'shuqaning oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, bola tarbiyasini, uy-ro'zg'or ishlarini o'rniga qo'yadigan kamtarin va eriga sadoqatli bo'lishi nazarda tutiladi[9].

Yusuf xos Hojibning mashhur asari "Qutadg'u bilig" (baxt saodatga yo'llovchi bilim) da er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e'tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarining oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o'rni va ahamiyati, er-xotin o'zaro munosabatlarining me'yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar aytilganki, ular hozirgi oila turmushi va er-xotin munosabatlari uchun ham ahamiyatlidir. Asarda "Sen xotin olsang, o'zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo'lib qolasan". Asli, urug'i hamda zoti yaxshi bo'lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin[4].

Turk olimi Yusuf Tovasliy to'plagan "Hikmatlar xazinasi"dagi kelin bo'luvchi qizga beriladigan ona nasihati kishining e'tiborini o'ziga tortadi. Unda ona turmushga chiqayotgan qiziga quyidagilarni nasihat qiladi: "Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat har kimga lozimdir, o'git hammaga zarurdir. Nasihat bilmaganga o'rgatadi, bilganni esiga soladi. Olloh bergan qonunga ko'ra, hayotga qadam qo'yadigan har bir qiz erga, har bir erkak ayolga muhtoj bo'ladi. Erkaklar ayol uchun, ayollar erkak uchun yaratilgandir. Hayot mavjud ekan, bu qonunni hech kim buza olmaydi". Shu sababli sen tug'ilib o'sgan va voyaga etgan uyingdan, yayrab yashnab, o'ynab-kulib yurgan eringdan chiqib, o'zing bilmaydigan, notanish uyga borasan. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo'lsin. Sen unga er bo'lki, u senga osmon bo'lsin ! Aytganlarimga amal qilsang ering bilan go'zal[8].

Inson muhabbatdan tug'ilgan, oiladagi ilk onalik mehri va otalik muhabbati bilan yo'rgaklangan. Go'dakning insoniy sifatlari kamol topishida ham mana shu mehr-muhabbat tarbiya maskani hisoblanadi. Binobarin, nikohdan birinchi maqsad ham naslning davomiyligidir. Fitrat qarashlarining zamirida islomiy oila mohiyatini anglatish yotgani uchun oilada millatning qadri va sha'nini belgilovchi harakatlar, avvalo, er va xotinning iffat va porsolig'i (diyonati) bilan bog'liq ekanini hayotiy misollar bilan anglatadi. Er-xotinlikning birinchi sharti va oxir-oqibati farzand ekan, bu maqsadga erishish vositasi va sababi visoldir. Visol ishtiyoqi yoshlarda ertaroq tug'ilishiga

qaramasdan «hakimlar erkaklarga 23 yoshdan oldin uylanmaslikni va qizlarga 18 yoshdan oldin turmushga chiqmaslikni maslahat beradilar»[5].

Abdurauf Fitrat Ushbu «maslahat»ning ham fiziologik va genetik, gigiyenik va sihattalab maqsadlariga qaratilganini eslash barobarida oilaning sog'lom va barkamol farzand yetishtirishdagi vazifalarini erinmay birma-bir uqtirib o'tgan. Oilani janjal, fisq, xiyonat va, boringki, taloq kabi kushandalardan saqlab turuvchi vosita madoradir, ya'ni er-xotinning murosasidir. Tabiiyki, tartibli oilada nikoh, homiladorlik va uning nihoyasi farzanddir. Fitrat farzand tug'ilishi bilan bog'liq barcha shar'iy hukmlarni



eslatish barobarida asosiy e'tiboni farzand parvarishiga qaratgan. Shuning uchun ham kitobning ikkinchi bobi «Farzand tarbiyasi» deb nomlanadi. Tarbiya masalasiga ham millatga buyuk foyda yetkazuvchi soha deb qaramoq va uni boshqalarga ishonib topshirib qo'yish oilaning mas'uliyatsizligidandir, degan zarur xulosaga keladi. Fitrat tarbiya haqidagi qadimiy fanlar asosida uni uch shaklda: badan tarbiya, aqliy va axloqiy tarbiya deb anglatgan. Biroq ularni bir-biridan ajratib ham bo'lmaydi. Ular o'zaro shunday bog'liqdirki, biriga ziyon yetsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo'ladi. Biriga foyda yetsa, boshqalari ham undan bahramand bo'ladi. Oiladagi oddiy mojaro va harakatlar bilan o'ralashmay, bolalarning aqliy, ya'ni fikriy tarbiyasi millatning niyati bilan uyg'un bo'lishi lozim. Axloqiy tarbiya kishi axloqini kamolga yetkazish, odamning fe'l-u xo'yi va harakatiga yaxshi fazilatlarni singdirish demakdir[5].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosidan bunday misollarni adoqsiz davom ettirish mumkin. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'siri masalasiga Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyolilari alohida e'tibor bilan qaratganlar. Ularning asarlarida oilaning muqaddasligi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, oila muqaddasligini belgilovchi muhim milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, oilaning asosini tashkil etuvchi er va xotinga xos sifat va fazilatlarning shakllangan bo'lishi, ular oilaviy burch va vazifalarini sadoqat bilan ado etishlari qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila barqarorligini belgilovchi shaxslararo munosabatlar ta'siriga xos qimmatli ma'lumotlar hozirgi oilaviy turmush va uning barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon oilalari qanday turlarga ega ekanligi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni o'rganish, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi. O'zbek oilasining yuqoridagi ijtimoiy-psixologik klassifikatsiyasi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2.1998 yil oila yili-1998 god semi. -T.:, -O'zbekiston||, 1998. -128 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yohud ahloq. -T.:, «O'qituvchi», 1992. -160 b.
- 4.Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. -T.:, -A.qodiriy|| nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -223 b
5. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -Toshkent. 2013. 144-b. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. -T.:, «Adolat», 1998. -300 b.
- 6.Shoumarov Sh.B., Shoumarov G'.B. Muhabbat va oilaviy hayot. -T.:, -Ibn Sino||, 1996. -96 b.
- 7.Shoumarov G'.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. -T.:, -Ibn Sino, 1994. 120 b.



- 8.Haydarova S, – “Oila psixologiya” Ma’ruza matini Guliston 2016 yil.
9.Kaykovus. qobusnoma. -T.: –Meros||, 1992. -176 b.